



*hokimligi
maktabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*
*maktabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
ning
20__-20__-o'quv yili 7-sinflar uchun
“YOSH TILSHUNOS”*

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

Nº	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfি	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

“ _____ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari _____

“

_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari_

MMIBDO‘

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “Yosh tilshunos” to‘garagining
ISH REJASI**

Nº	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Til va nutq			
2.	Fonetika			
3.	Fe'l so'z turkumi			
4.	Ot, sifat so'z turkumi			
5.	Son, ravish so'z turkumi			
6.	Matn. matnda ko'p ma'noli, ma'nodosh so'zlardan foydalanish			
7.	Shakldosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan foydalanish			
8.	Olmosh so'z turkumi va uning tasnifi			
9.	Ko'rsatish olmoshlari			
10.	Kishilik olmoshlari			
11.	O'zlik olmoshlari			
12.	So'roq olmoshlari			
13.	Belgilash olmoshlari			
14.	Gumon olmoshlari			
15.	Olmoshlar o'rnida qo'llaniladigan so'zlar			
16.	Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari			
17.	Sodda va qo'shma olmoshlar. ularning imlosi			
18.	Ismlarning munosabat shakllari			
19.	Ismlarning lug'aviy va munosabat shakllari			
20.	Egalik shakllari va ularning imlosi			
21.	Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qo'shimchalarining vazifasi			
22.	Egalik qo'shimchali so'zlearning imlosi			
23.	Kelishik shakllari			
24.	Bosh kelishik shakli			
25.	Qaratqich kelishigi shakli			
26.	Tushum kelishigi shakli			
27.	Jo'nalish kelishigi shakli			
28.	O'rinn-payt kelishigi shakli			
29.	Chiqish kelishigi shakli			
30.	Ismlarni kesimga xoslovchi shakllar			
31.	Yordamchi so'zlar			
32.	Ko'makchilar			
33.	Sof ko'makchilar			
34.	Ko'makchilarning ma'no turlari			
35.	Ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligi			
36.	Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlearning shakllari			
37.	Bog'lovchilar			
38.	Bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari			
39.	Teng bog'lovchilar			

40.	Sof va vazifadosh bog‘lovchilar			
41.	Biriktiruv bog‘lovchilari			
42.	Ayiruv bog‘lovchilari			
43.	Inkor bog‘lovchisi			
44.	Yakka va takror bog‘lovchilar			
45.	Ergashtiruvchi bog‘lovchilar			
46.	Shart bog‘lovchilari			
47.	Yuklama haqida ma'lumot			
48.	Sof va vazifadosh yuklamalar			
49.	Ayiruv-chegaralov yuklamalari			
50.	Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari			
51.	O‘xshatish-qiyoslash yuklamasi			
52.	Undov so‘zlar			
53.	His-hajjon undovlari			
54.	Buyruq-xitob undovlari			
55.	Taqlid so‘zlar			
56.	Taqlid so‘zlarning tuzilishi va imlosi			
57.	Modal so‘zlar			
58.	Modal so‘zlarning ma'no turlari			
59.	Sof va vazifadosh modal so‘zlar			
60.	Tasdiq va inkor so‘zlar			
61.	Olmosh			
62.	Egalik shakllari va kelishik shakllari			
63.	Yordamchi so‘zlar			
64.	Undov, taqlid va modal so‘zlar			
65.	Sifatlarning ma'no guruhlari			
66.	Xususiyat, hajm-o‘lchov, makon-zamon sifatlari			
67.	Rang-tus, maza-tam va hid sifatlari			
68.	Son. ularning umumiy belgi va xususiyatlari			

Sana: “___” 20 ___-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

MAVZU: TIL VA NUTQ

O‘quvchilar o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka:

- «Til va nutq», o‘zbek tilining dunyodagi tillar orasida tutgan o‘rni haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- «Til va nutq» tushunchasini farqlay olish;
- «Til va nutq» haqida o‘z tushunchasini bildira olish.

Mashg‘ulotning borishi:

1. Kirish. Mashg‘ulotning kirish qismida 7-sinfda o‘rganiladigan «Ona tili» kursining maqsad va vazifalari, mazmun-mundarijasi bilan tanishtiriladi.

2. Yangi mavzuni o‘rganish. «Til va inson» matni o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi. So‘ngra o‘quvchilar mustaqil o‘qib chiqadilar.

Tilning inson hayotidagi o‘rnini qanday tushunasiz? Tarixni o‘rganishda til va yozuvning o‘rni qanday? Dastlab insonlar qanday nutq vositasida aloqa qilganlar? Tilning jamiyat rivojidagi o‘rni nimada? kabi savollar yordamida matn mazmuni o‘zlashtiriladi.

3.Guruhlarda ishlash. O‘quvchilarni kichik guruhlarda ishla-tishdan maqsad ularni mustaqil fikrlash orqali matn mazmunini puxta o‘zlashtirib olishlariga erishish va matn tahliliga o‘rgatish. Bunda guruhlar ramziy ma’noda nomlanadi. Chunonchi:

1-guruuh- «**Tadqiqotchi**». Bu guruh o‘quvchilarining vazifasi «Til va inson» matni mazmuni bo‘yicha


qo‘srimcha ma'lumot taqdim etishdan iborat b o‘ladi.

2-guruuh - «**Aloqachi**»lar bo‘lib, ular matnda bayon

etilgan fikrlarning davr, kundalik voqeа-hodisalar

bilan bog‘liqligini izlab topadilar.

3-guruhnı «Savollar beruvchi» deb nomlab, ularga tahlil boshlanmasdan avval matn bo‘yicha muhokama uchun savollar tuzib chiqish topshirig‘i beriladi.



Navbatdagи guruh «So‘z axtaruvchi»lar bo‘lib, matn mazmunini ifoda etishga yordam bera oladigan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va shu tushunchalarni izohlashga tayyorgarlik ko‘radilar.

O‘quvchilar guruhi to‘rttadan kam yoki ko‘p boiishi, nomlani-shi boshqacha bo‘lishi mumkin. Bu o‘qituvchilarning ijodkorligiga, mavjud sharoit va imkoniyatga bog‘liq.

Guruhrishni boshlaydi (topshiriq yozma bajariladi). O‘qituvchi boshqarib, yo‘llanma berib turadi.


«Tadqiqotchi»lar tilning jamiyatdagi o‘rni, insoniyat hayotida o‘zaro aloqa-munosabat uchun asosiy vosita ekanligi, tilni e’zozlash, undan to‘g‘ri foydalanish, boshqa tillarga hurmat bilan munosabatda bo‘lib, ko‘p tilni bilish ham fazilat ekanligi kabi ma'lumotlarni matnga qo‘srimcha qilishlari mumkin.

«Aloqachi»lar yurtimizda istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillarining, shuningdek, xorijliklarning ham o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqishlari ortgani, o‘zo‘rnidaxorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq ham oshib borayotganligi va bu holning samarali natijalari yoshlar timsolida ko‘rinayotgani kabi ma'lumotlar yordamida matn mazmunini kundalik hayot bilan bog‘laydilar.

«Savol beruvchi» guruhi matn mazmuni o‘zlashtirib olishga yordam beruvchi: Tilning jamiyatdagi o‘rnini qanday tushunasiz? «Til-aloha vositasi» jumlasini izohlang.

«Ko‘p tilni bilish ham fazilat», deganda nimani tushunasiz? Siz chet tillaridan qaysi birini o‘rganyapsiz? kabi savollarni o‘rtaga tashlab, tilning jamiyatdagi o‘rni yuzasidan munozara o‘tkazish muhitini yaratadilar.

«So‘z axtaruvchi»lar guruhi matnning asosiy mazmun-maqсадини очиб берувчи тушunchalarниqidirib topadilar va ularni izohlaydilar.



Binobarin, inson hayotida tilning o‘rni, til va jamiyat, og‘zaki nutq, yozuv, yozma nutq, tilning ma’rifiy ahamiyati, o‘zbek tili, dunyodagi tillar, tilning rivojlanib borishi jumlalarini matn mazmunini очиб берувчи тушunchalar sifatiga kiritish mumkin.

Guruhdan bajarilgan ish mazmuni natijalari yuqorida bayon etilgan darajada bo‘lishi uchun o‘qituvchi darsning birinchi bosqichidagi bayonida o‘quvchilaming mustaqil va ijodiy fikr yuritishlariga keng imkoniyat yaratishlari kerak.

Guruhdan bajarilgan ish sardor tomonidan boshqa guruhlarga yctkaziladi. Bajarilgan ish yuzasidan savollarga javob beriladi.

Tanlangan asosiy tushunchalar ishtirokida kichik matn yaratiladi. Qo‘llangan tinish belgilarining vazifikasi izohlanadi.

Mashqlar bilan ishlash. 2-mashqda berilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» kitobidan olingan parcha o‘qilib, tilimizdagи mehr-oqibat qadr-qimmat tushunchalarining bir-biridan farqi yuzasidan suhbat o‘tkaziladi. 3-mashqda berilgan tushunchalar mazmun-mohiyati izohlanadi va bahs uyushtiriladi. 4-mashq matni 2-3 o‘quvchiga ifodali o‘qitiladi. Matnda qanday g‘oya ilgari surilayotgani haqida suhbat o‘tkazilib, yuzaga kelgan xulosa asosida o‘quvchilar o‘z mustaqil fikrlarini bayon etadilar.

4. Mashg‘ulotni xulosalash.

Uyga vazifa. «O‘zbegim deb keng jahonga Ne uchun madh etmayin!» mavzusida matn tuzish.



Sana: "—" 20—-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

MAVZU: FONETIKA

O‘quvchilar o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka:

- tilshunoslikning fonetika bo‘limi haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- unli va undosh tovushlar, tovushlar tasnifi tushunchasini farqlay olish;
- fonetik hodisalar haqida bilimlarni kengaytirish.

Mashg‘ulotning borishi:

Mashg‘ulotning rejasi:

1. Fonetika haqida ma'lumot.
2. Unli tovushlar tasnifi.
3. Undosh tovushlarning hosil bo‘lish o‘rni, usulini aniqlash.

Berilgan savol va topshiriqlar asosida o‘quvchilar bilimi aniqlanadi. So‘ngra o‘quvchilar fikri umumlashtirilib, shunday xulosaviy fikrlarni bayon qilish mumkin.

Fonetikada tovush va harf, nutq a’zolari, bo‘g‘in, bo‘g‘in ko‘chirish, urg‘u singari hodisalarning o‘rganiishi aytildi.

Undosh va unli harflarni sinf doskasiga oldindan yozib qo‘yish **mumkin: b, d, f, g, h, j, k, I, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng -a, e, i, o, u, o‘.**

Sinf «Chaqqon» va «Tezkor» guruhaliga bo‘linadi. «Chaqqon»lar undoshlarni, «Tezkor»lar unlilarni talafluz qiladilar. Shu bilan birga, undoshlar va unlilarni ajratishda ularning to‘sinqqa uchrashi va uchramaslik belgisiga tayanilganligini aytadilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini to‘ldirib, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undosh tovushlami jarangli va jarangsiz undoshlarga bo‘linishiga hamda jarangli va jarangsiz undoshlaming farqli belgilari e’tiborni qaratadi.

5-mashqni bajarishda o‘quvchilar gaplarni ko‘chirib, unli va undosh tovushlami ajratib, ularga tavsif beradilar. Namuna: **b** - undosh, jarangli, lab tovushi.

6-mashqni bajarishda o‘quvchilar undosh tovushlami am’qlab, berilgan jadvalga joylashtiradilar.



Lab undoshlari	Til undoshlari				Bo‘g‘iz undoshi
	Til oldi	Til o‘rta	Til orqa	Chuqr til orqa	
b, f, m, v, p	d, t, z, j, s, sh, ch, n, l, r	y	g: k, ng	q, g‘, x	h

7-mashq shartini bajarish uchun portlovchi va sirg‘aluvchi undosh tovushlami amaliy bajaradilar. **D** undoshi til uchining yuqori tishlar tirkishini jips berkitishidan og‘iz bo‘shlig‘ida qamalib yotgan havo zarb bilan til-tish orasini «yorib», «portlash»idan hosil bo‘lishi anglatiladi. **M, n, ng** undoshlarining portlovchiligi burunni ikki bar-moq bilan qisib, talaffuz qilish orqali oson tushuniladi.

Sirg‘aluvchi undoshlar ikki nutq a’zosi jipslashishga yaqinlashganda og‘iz bo‘shlig‘ida to‘plangan havo har qanday sharoitda yo‘l topib, tirkishlardan chiqishi hisobiga hosil bo‘ladi. **r, z, s** tovushlari-ning talaffuzi o‘quvchilaming amaliy bajarishlari hisobiga aniqlansa, xotirada uzoq saqlanadi.

Namuna: **sh** sirg‘aluvchi, **n** portlovchi, **s** sirg‘aluvchi, **t** portlovchi, **b** portlovchi, **z** sirg‘aluvchi deb davom ettiradi. 8-mashq mustaqil bajariladi. 9-mashq uyga vazifa.

Sana: "—" 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

MAVZU: FE’L SO‘Z TURKUMI

Mashg‘ulotning borishi:

Mashg‘ulotning jihizi: mavjud texnika vositalari va misollar yozilgan ko‘rgazma plakatlar.

Mashg‘ulotning rejisi:

1. Fe'l nisbatlari, mayllari haqida ma'lumot.
2. Fe'l shakllarining bayoni.
3. Fe'llarning tuzilishi.

Savol va topshiriqlar ustida ishslash.

1. Birinchi topshiriq o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishini hisobga olib, fe'l so‘z turkumini o‘rganganimizda fe'l haqida qaysi mavzu-larni eslay olasiz, deyish mumkin. O‘quvchilarining javoblari dos-kaga tartib bilan yozib boriladi. Yozuv quyidagicha davom etishi mumkin: 1) fe'lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakli; 2) fe'l nisbatlari; 3) fe'l mayllari; 4) fe'l zamonlari; 5) fe'l shakllari; 6) fe'llarning tuzilishi.
2. Ikkinci topshiriqni bajarish uchun quyidagicha savollar beriladi. Yozdi fe'lidan ish-harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganini bilsa bo‘ladimi? (ish-harakat bajarilgan) Yozdi fe'lida ish-harakat bajarilmasa, qanday shaklda bo‘ladi? (Yozmadi). Yozmoq fe'liga yana qanday so‘z qo‘sksak, ish-harakatning bajarilmasligini bildiradi? (yo‘q, emas)
3. Fe'l nisbatlari turlarini kim aytaladi? *Quyosh ko‘tarildi, gul ochildi gaplaridagi fe'llar qaysi nisbatda?* (*O‘zlik nisbatda*) *Gulg ‘unchalarini erta tongda kim ochib qo‘yadi.* (*Hech kim, gul o‘zi ochiladi, ish-harakatni gulning o‘zi bajaradi*). *Quyoshni koinotga bugun O‘zbekiston, ertaga Yaponiya olib chiqib qoyadimi?* (*Yo‘q, quyosh o‘zi ko‘tariladi*). Demak, tabiatning o‘zi yoki insonning o‘zi tomonidan ish-harakat bajarilsa, o‘zlik nisbati bo‘ladi.



6-, 7-, 8- topshiriqlar - harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh qo‘shimchalarini aralash holda ko‘chma doskaga oldindan yozib, tayyorlab qo‘yish mumkin. O‘quvchilar ichlarida o‘qishib, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomining to‘g‘risiga yozib bajaradilar. So‘ngra o‘qituvchining tayyor javobiga qiyoslab o‘z xatolarini tushunib to‘g‘rilab oladilar.

-moq	-gani	-r(-ar) -gach	Ravishdosh: -a, -y...
-guncha	sh(-ish)	-v(-uv) -digan	Sifatdosh: -digan...
-gan	-a, -y	-b(-ib) -gali	Harakat nomi: -v (-uv)...

9-topshiriqdagi sodda, qo‘shma, juft fe'llarga o‘quvchilar tomonidan keltirilgan misollar bilan kifoyalanish mumkin. Shuningdek, qo‘shma fe'lni aniqlash uchun qiyoslash maqsadida ko‘makchi felli so‘z qo‘shilmasidan, birinchi qism fe'l bo‘limgan va har

ikkala qismi fe'lidan iborat bo'lgan qo'shma fe'llarni qiyoslash orqali tushuntiriladi. Namuna: *Ishlab ko'rди, olib keldи, shod qildи*. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida harakatning bittaligi, qo'shma fe'lda (*fe'l+fe'l*) harakatning ikkitaligi (ko'makchi fe'l: *ishladi*, qo'shma fe'l: *oldi va keldi*) bilan farqlanadi. mashqning shartidan shuni uqish mumkinki, fe'lga xos grammatik shakllarning bir guruhi ma'lum vazifani bajarishga xoslanganligini ko'rsatadi.



Ularning birinchi guruhi - fe'llarning funksional shakllari uch xil deyiladi.

1. Harakat nomi;
2. Sifatdosh;
3. Ravishdosh.

Demak, mashqdagi faqat sof fe'llargina tahlil qilinadi: *Eshitmadi, o'rgatadi, so'radi, bilaman, xor bo'Imaydi, deydilar*. Namuna: *o'rgatadi* - aniq mayl, aniq nisbat, hozirgi-kelasi zamon fe'li. mashqda fe'l shakllari qo'shimchalarini aniqlash ko'zda tutil-gan. Biroq ravishdoshning ravishgiga o'xshashligi, birlik nisbatining harakat nomiga o'xshashligi kuzatiladi. *Haqiqatan ham, borishsin* so'zidagi *-ish* birgalik nisbat, duo qilishadi so'zidagi *-ish* birgalik nisbat qo'shimchasidir. Har ikkala so'zga alohida izoh berish darkor. *Sizlab, deb, qo'yib, bo'lib, olib* - ravishdosh, *-gan* sifatdosh qo'shimchasidir.

mashqda fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari so'ralgan. Mashqda qo'shma fe'llarni aniqlashda ikki so'zdan tuzilgan *kirib chiqmoq, ekin ekmoq, qo'l urmoq* misollari o'quvchilar fikrini rivojlantirish uchun keltirilgan. *Qo'l urmoqning* ibora, *ekin ekmoqning* so'z birikmasi, *kirib chiqmoq* ning qo'shma fe'l ekanligi o'quvchilarni o'yantiradi. Misollarning ma'no farqlari muammoli o'qitish usuli asosida hal qilinadi. Sodda fe'llarni sodda yasama, sodda tub fe'llarga ajratish yanada o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi.

mashq uyga vazifa qilib beriladi, bu boshqotirma yechilsa, “*Oltin olma, duo ol*” maqoli kelib chiqadi.

*veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Ona tili fanidan 7-sinf o'quvchilarga 68 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Narxi: 30 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**